Pedagogik ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarida integrativ yondashuv – milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish yondashuvi sifatida.....	584
Miraxmedov Fatxulla	
Bolalarni xavfsiz, erkin, o'yinga asoslangan va do'stona muhitda tarbiyalash – muvofiqlashtirishning yangi standartlari.....	590
Mamadaliyeva Dilfuza Baxtiyorovna	
Alisher Navoiyning "Arba'in" asaridagi qit'alarda sahih hadislarining badiiy talqini	595
Nematullayeva Madina Zafarovna	
Umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari	598
Xalimov Moxir Karimovich	
Biologiya fanini o'qitishni modernizatsiyalash bo'yicha zamonaviy yondashuvlar.....	603
Axmadjanova Mohiyat Sadriyevna	
Dizariya shakllarining klinik-pedagogik tavsifi	607
Iminjonova Moxichexra Alimardon qizi	
Oliy ta'limda kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va pedagogik imkoniyatlari.....	611
Axmedova Zilola Muxtor qizi	
Оптимизация процесса самообразования студентов русской филологии в условиях современного образовательного пространства	617
Азизова Д. А.	
Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi.....	622
Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlikka tarbiyalashda pedagogik texnologiyalarning turlari va ularni qo'llash imkoniyatlari.....	625
Xudaybergenova Adolat Usmanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligi.....	629
Jumanova Fotima Uralovna, Azimova Zebxon Tohirovna	
4K yondashuvi asosida dars topshiriqlarini ishlab chiqish.....	635
Boboyeva Nafosat Tulqin qizi	
O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika.....	639
Xolmatova Ziroatxon Anvarovna	
Raqamli ta'lim muhitida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati.....	642
Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi	
O'yinchilarning texnik va taktik tayyorgarligi.....	645
Madaminov Oribdjan Nishanbayevich	



Ta'lim jarayonida gamifikatsiya va didaktik o'yinlar orqali metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	648
<i>Xayrullina Parizod Farg'at qizi</i>	
Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari va monitoring tizimi.....	651
<i>Umurov Zarif Latifboyevich</i>	
Boshlang'ich sinflarda folklor asarlarini aksiologik yondashuv asosida o'qitish metodikasi	660
<i>Aytmuratova Elvira Ersultanovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tanqidiy fikrlashining psixologik va pedagogik mohiyati.....	663
<i>Haydarova Kamola Ergashboy qizi</i>	
Differensial ta'limning nazariy-konseptual asoslari.....	667
<i>Rasulova Nozigul Abdivoxid qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatishda kreativ shaxsni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar	671
<i>Rizoyeva Muslima Raxmonovna</i>	
Информационная компетентность через призму филологии: ключевые факторы формирования ...	679
<i>Хикматов Нодир Назимджанович</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari	683
<i>Mamatova Zarena Abduljalilovna</i>	
O'zbekiston va Angliyada pedagogik ta'lim tizimining tarixiy asoslari.....	686
<i>Miramatova Laylo Ravshanjon qizi</i>	
Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	690
<i>Nilufar Xalikova Mirkadirovna</i>	
Badmintonchilarda maxsus chaqqonlik tayyorgarligining o'yin faoliyatiga ta'siri	694
<i>Samadova Uktabar Hasanovna</i>	
<i>Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik</i>	
yondashuvning o'rni va ahamiyati	698
<i>Yusupova Dilnoza Fayzullayevna</i>	
Pedagogical Essence of Improving Students' Collaborative Skills Through Multi-Vector Approaches	702
<i>Turemuratova Aziza Begibaevna, Otelbayeva Muhayyo Alisher qizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri	708
<i>Shaymuradov Taxir Zamanovich</i>	
Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni baholash mezonlari: falsafa fanining o'quv jarayoniga integratsiyasi	713
<i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>	
Klasterli ta'lim muhitida bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodlari.....	717
<i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....	720
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar	724
<i>Abduxalimova Yulduz Normurod qizi</i>	
Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari	728
<i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNI MODERNIZATSIYALASH BO'YICHA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Axmadjanova Mohiyat Sadriyevna

Qo'qon davlat universiteti Biologiya kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada modernizatsiya tushunchasi, uning biologiya faniga integratsiyasi, biologiya fanini o'qitishni modernizatsiyalashga oid zamonaviy yondashuvlarning tarkibiy elementlari, asosiy komponentlari va yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, modernizatsiya turlari hamda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishning o'ziga xos pedagogik yondashuvlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, ijtimoiy modernizatsiya, ta'limiy modernizatsiya, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion yondashuvlar, biologiya ta'limi.

Abstract: This article analyzes the concept of modernization and its integration into the field of biology. It examines the structural elements, main components, and directions of modern approaches to the modernization of biology teaching. In addition, the types of modernization and specific pedagogical approaches to organizing innovative processes in higher education institutions are discussed.

Key words: modernization, social modernization, educational modernization, modern approaches, innovative approaches, biology education.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие модернизации и её интеграция в биологическое образование. Анализируются структурные элементы, основные компоненты и направления современных подходов к модернизации преподавания биологии. Также освещаются виды модернизации и специфические педагогические подходы к организации инновационных процессов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: модернизация, социальная модернизация, модернизация образования, современные подходы, инновационные подходы, биологическое образование.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar fanlarni o'qitish jarayonini modernizatsiyalashni, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar hamda raqamli ta'lim resurslari asosida yangilashni talab etmoqda. Ayniqsa, biologiya fani tabiat hodisalarini ilmiy asosda tushuntirish, ekologik tafakkurni shakllantirish va o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli biologiya fanini o'qitish metodikasini zamon talablari asosida takomillashtirish muhim pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Biologiya fanini o'qitishda an'anaviy ta'lim usullarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida muammoli ta'lim, loyiha metodlari, tadqiqotga asoslangan o'qitish, interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish biologiya ta'limining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, biologiya fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ilmiy tadqiqot olib borish, ekologik muammolarni tahlil qilish hamda amaliy faoliyatga tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, biologiya ta'limini modernizatsiyalash jarayonini ilmiy asosda o'rganish va zamonaviy yondashuvlarni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biologiya fanini o'qitishni modernizatsiyalash masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Pedagogika va ta'lim metodikasi sohasidagi tadqiqotlarda biologiya fanini o'qitishda innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhimligi ta'kidlanadi.



Didaktika sohasidagi tadqiqotlarda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda faol o'qitish metodlari muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. Jumladan, pedagog olimlar biologiya fanini o'qitishda muammoli ta'lim, tadqiqot metodlari hamda loyiha faoliyati o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar. Bu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ilmiy kuzatishlar olib borishi va tajriba natijalarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

So'nggi yillarda biologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi ham keng o'rganilmoqda. Xususan, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari, interaktiv platformalar va elektron ta'lim resurslari biologiya darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli ta'lim vositalari o'quvchilarga murakkab biologik jarayonlarni vizual tarzda tushunish imkonini yaratadi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv biologiya ta'limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lashga, ekologik madaniyatni shakllantirishga hamda biologik bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi biologiya fanini o'qitishni modernizatsiyalash jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida biologiya fanini o'qitishni modernizatsiyalashga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy ta'lim metodlariga doir manbalar tahlil qilindi. Ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, pedagogik kuzatish va umumlashtirish metodlari orqali o'rganildi. Olingan natijalar biologiya ta'limida qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash hamda ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash asosida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotning yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror topishiga olib keldi.

Mazkur yondashuvlarning mohiyati so'nggi yillarda umumiy tarzda "modernizatsiyalash" tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda. Xo'sh, "modernizatsiya" tushunchasi lug'aviy jihatdan qanday ma'noni anglatadi? Ushbu tushuncha negizida qanday holat tavsiflanadi? Modernizatsiya (ingl. "modern" – zamonaviy, ilg'or, yangilangan) – ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi sanaladi.

Odatda modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi. Biroq ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o'tadi. Falsafiy talqinda ifoda etganda, miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga aylanadi. Masalan, o'rta asrlarda agrar xarakter kasb etgan jamiyat ilm-fan, texnika, sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan industrial jamiyatga aylangan.

Ijtimoiy modernizatsiya jamiyatning yopiq ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo'ladi. Jumladan, ta'lim sohasidagi yangilanishlar ham shular jumlasidandir.

Ta'lim tizimining modernizatsiyasi – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan talabini qondirish, ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmlarning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishidir.

Mazkur modernizatsiya shaxsni o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta'lim tizimining barcha sohalarini to'liq qamrab oladi hamda jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

- har bir shaxsning to'laqonli ta'lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligini va ta'lim olishning ochiqligini ta'minlash;
- uzluksiz ta'lim tizimida yangi sifat ko'rsatkichlariga erishish;
- yangi ta'lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta'lim tizimida samarali me'yoriy-huquqiy hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;



- davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi negizida ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta'lim muassasalarining rolini oshirish.

Barcha davlatlarda bo'lgani kabi, O'zbekiston sharoitida ham ta'lim tizimini modernizatsiyalashda davlat, jamiyat, mahalliy va ijtimoiy tashkilotlar, yuqori hamda quyi boshqaruv organlarining o'zni va roli, ular o'rtasidagi o'zaro birlik va hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar sanaladi:

- elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish;
- o'qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o'zaro muvofiqlashtirish;
- o'quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarining talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirilishi uchun qulay pedagogik va texnologik shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

1. **Gnostik-dinamik yondashuv** (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalarni o'rganish hamda mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda ulardan amaliyotda foydalanishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni izchil o'zlashtiradilar; o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni egallaydilar).
2. **Individual faoliyatli yondashuv** (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari va tajribalariga tayangan holda amaliy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).
3. **Ko'p sub'ektki (dialogik) yondashuv** (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro hamkorligi, xususan, ko'p yillik ish tajribasi va kasbiy mahoratga ega pedagoglar faoliyati bilan tanishish hamda ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi).
4. **Insonparvarlik yondashuvi** (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari hamda bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritadi).
5. **Individual-ijodiy yondashuv** (unga ko'ra har bir pedagog o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati va ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammolarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Texnologiya (yunon. "techne" – mahorat, san'at; "logos" – tushuncha, ta'limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqalar) jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishidir. Ta'lim texnologiyasi (ingl. "educational technology") – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat va san'at darajasida tashkil etilishi demakdir.

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishdir.

Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimidir.

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishidan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u talabalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Ta'lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biologiya fanini o'qitishni modernizatsiyalash zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan biologiya ta'limi o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, ekologik madaniyatini shakllantirish hamda ularning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biologiya fanini o'qitishda muammoli ta'lim, loyiha metodi, tadqiqotga asoslangan o'qitish hamda interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning o'quv faolligini oshiradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish biologik jarayonlarni tushuntirishni yanada samarali qiladi.

Shuningdek, biologiya ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish o'quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lashga, ularda ekologik va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Natijada biologiya fanini o'qitishni modernizatsiyalash ta'lim jarayonining sifatini oshirishga, o'quvchilarning bilim darajasi va ilmiy tafakkurini rivojlantirishga hamda zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ruzikulova Z. A. Innovative Teaching Methods in Biology Education for General Schools. – European International Journal of Pedagogics, 2024. – № 11. – B. 235–239.
2. Aumann A., Schnebel S., Weitzel H. Teaching Biology Lessons Using Digital Technology: A Contextualized Mixed-Methods Study on Pre-Service Biology Teachers' Enacted TPACK. – Education Sciences, 2024. – Vol. 14(5).
3. Modi M., Ansori D., Shofiyuddin S., Amanah I., Kaharuddin M. Improving Students' Biology Learning Outcomes Through the Implementation of a Guided Inquiry Model. – DIDAKTIKA: Jurnal Penelitian Tindakan Kelas, 2024. – Vol. 2(1).
4. Nasimova H. Biologiya o'qitishda virtual texnologiyadan foydalanish metodikasi. – Science and Education, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.